

M.RIXSIYEV, Q.KARIMOVA

YO'L HARAKATI QOIDALARI

1-SINF O'QUVCHILARI UCHUN
O'QUV QO'LLANMA

MAJBURIY
NUSXA



TOSHKENT-2013

74.200.58 - Ўзларга оғаралас

UO'K: 625.161.4 (075)

: 74.200.58

Y-58

Yo'l harakati qoidalari: 1-sinf o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma / O'zbekiston Respublikasi xalq ta'lifi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi IIV yo'l harakati xavfsizligi bosh boshqarmasi «Avtohamroh» jurnali; tuzuvchi mualliflar: M. Rixsiyev, Q. Karimova. — Toshkent: Yurist-media markazi, 2013. - 32 b.

ISBN 978-9943-387-72-0

UO'K: 625.161.4 (075)

74.200.58

O'zbekiston Respublikasi IIV YHXBB boshlig'i,
polkovnik X.A.SAYDALIYEVNING umumiy tahriri ostida

Tuzuvchi mualliflar:

Qumrixon KARIMOVA, «Avtohamroh» jurnali Bosh muharriri, filologiya fanlari nomzodi

Mansur RIXSIYEV, IIV Yo'l harakati xavfsizligi Bosh boshqarmasi matbuot bo'linmasi katta inspektori, podpolkovnik


Mas'ul muharrirlar: Akbar Allamuradov, Ma'mura Tadjieva

Taqrizchilar: Tohir Mullaboyev, «Yashil chiroq» teleko'rsatuv boshlovchisi
Sanjar Mirsolihov, A. Avloniy nomidagi O'qituvchilar malakasini oshirish
markaziy instituti kafedra mudiri

A. Avloniy nomidagi O'qituvchilar malakasini oshirish markaziy instituti
«Maktabdan tashqari ta'lif va amaliy fanlar» kafedrasining 2012-yil 29-iyundagi
7-qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-387-72-0

© «Yurist-media markazi» nashriyoti, 2013-yil
© «Avtohamroh» jurnali



1042245
Og,

KIRISH SO‘ZI

Aziz bolajonlar!

Bog‘changizga sizni ota-onangiz olib borar edilar.

Mana endi mакtab o‘quvchilari bo‘ldingiz.

Hozir siz mustaqil ravishda maktabga borib-kelishni o‘rganmoqdasiz.

Siz endi yo‘l harakati ishtirokchisiga aylandingiz. Shunday ekan, yo‘llarda, ko‘chalarda yurganingizda u yerda amal qilinadigan qoidalarni bilishingiz zarur.


Ushbu qo‘llanma sizga ana shu qoidalarni o‘rganishingizda yordam beradi. Qoidalarga amal qilish hayotingizni transport harakatining baxtsiz tasodiflaridan saqlaydi.

Sizga o‘qish va «Yo‘l harakati qoidalari»ni o‘rganishingizda muvaffaqiyatlar tilaymiz.

KO'CHADA HARAKATLANISH




Bu – ko'cha. Ko'chada yo'llar, binolar, daraxtlar, yo'laklar, avtobuslar, avtomobillar bor.



Yo'llarda svetoforlar o'rnatilgan. Svetoforlar avtomobillar va piyodalar harakatini tartibga solib turadi.


Yo'llarda piyodalar uchun alohida o'tish joylari bor. Ular oq chiziqlar bilan belgilangan.



Savol va topshiriqlar:


- 1.Qayerda yashashingiz haqida gapirib bering.
- 2.«Ko'cha» deb nimaga aytilishini so'zlab bering.
- 3.Ko'chada insonga nima xavf solishi mumkin?

SIZ YASHAYOTGAN SHAHAR, QISHLOQ YO'LLARIDAGI HARAKAT



Yo'llarda avtomobillar, avtobuslar yuradi, yo'laklarda piyodalar yuradi.

Ularning hammasi yo'l harakati qatnashchilari hisoblanadi. Ulardan har biri yo'lda o'z o'rniiga ega.




Ot-aravalalar, velosipedchilar yo‘llarning chetidan yoki yo‘lakning chetidan yurishlari kerak.

Savol va topshiriqlar:

1. Kuzating va yo‘l bo‘ylab nima harakatlanishi mumkinligini ayting.
2. Yo‘llarda kim harakatlanishi mumkin.

BIZ MAKTABGA BORAYAPMIZ



Rasmlarga qarang. O‘quvchi maktabga borishga tayyorlanib, uydan chiqdi.



Aziz o‘quvchilar! Qaysi yo‘ldan yurishni bilmasangiz,
ko‘chaga chiqmang.



Aziz o‘quvchilar! Ko‘chada hovlilardan chiqayotgan avtomobillardan ehtiyot bo‘ling. Yo‘lning qatnov qismidan yurmang va duch kelgan joydan yo‘lni kesib o‘tmang.


Ko‘ngilsizlikka uchramaslik uchun yo‘l harakati qoidalariga rioya qilish kerak.

Savol va topshiriqlar:



1. Məktəbə borishda o'quvchiga nima xalal berishi mumkin?
2. Bu o'quvchilar qanday xatoga yo'l qo'ydilar?

YO'LDA HUSHYOR VA EHTIYOT BO'LING!




Yo'lning avtomobillar yuradigan qismida yoki uning yaqinida o'ynash mumkin emas. Bu hayotingiz uchun xavflidir.



Yo'l, ayniqsa, yomon ob-havoda avtomobillar va piyodalar uchun xatarli bo'lib qoladi. Nima uchun?



Bu holdagi ko‘ngilsizliklardan biri – yo‘llarning nam va sirpanchiq bo‘lishidir.



Nam yo‘lda mashina tez to‘xtay olmaydi.

**QOIDANI BILSANG A’LO,
SHIKAST TOPMAYSAN ASLO.**



Yo‘Ida piyodaning o‘zi sirpanib, yiqilib tushishi mumkin. Shuning uchun yo‘ldan o‘tayotganda ehtiyyot bo‘lishimiz kerak.

Bolalar qanday ehtiyyotsizlikka yo‘l qo‘ydilar?

Siz yashayotgan shahar, turar joy mavzesining qaysi joylarida o‘ta ehtiyyotkor bo‘lish lozimligini gapirib bering.

YO‘LLARDAGI SODIQ DO‘STLARIMIZ YO‘L BELGILARI BILAN TANISHAMIZ

Barcha yo‘l harakati ishtirokchilari yo‘l harakati qoidalariga amal qilishlari kerak.

Biz ulardan ba’zilarini tilga olamiz. Biz ularni hech qachon esdan chiqarib qo‘ymasligimiz zarur. Yo‘l harakati qoidalarini o‘rganishda bizga ko‘cha va yo‘llardagi ishonchli do‘stlarimiz — yo‘l belgilari va ishoralari yordam beradi.



Bu – «Piyodalar uchun yo‘lak» belgisi. Siz shu belgi o‘rnatilgan joydan yuring.



Bu – «Piyodalar o‘tish joyi» belgisi. U sizga yo‘lning qatnov qismidan o‘tishingiz mumkin bo‘lgan joyni ko‘rsatadi.



Bu – «Piyodalarning harakatlanishi taqiqlanadi» belgisi. Bu belgi o‘rnatilgan joydan yurmang!



Bu – svetofor. Birinchi svetofor Angliyada 1968 yilda o‘rnatilgan. Uning uch xil rangli chirog‘i bor: qizil, sariq, yashil. Har bir chiroqning o‘z ma’nosи bor.



To‘xta!



Kut!



Yur!

Bu – avtomobillar uchun o‘rnatiladigan svetofordir.



To‘xta!



Yur!

Piyodalar uchun chorrahalarda maxsus svetoforlar o‘rnatalidi.


Bu svetoforlarning faqat ikkita chirog‘i bor: qizil va yashil. Ular piyodalarga yo‘lni kesib o‘tishda yordam beradi.

Savol va topshiriqlar:




- 1.Svetoforlarning qanday turlarini bilasiz?
- 2.Svetofor ishoralariga qarang va ular nimani anglatishini gapirib bering.
- 3.Qanday yo‘l belgilarini bilasiz?
- 4.Svetofor to‘g‘risida nima bilasiz?

QAYERDA O'YNASH MUMKIN, QAYERDA MUMKIN EMAS



Bolalar maktab hovlisida o'ynashmoqda. Ular nima uchun xotirjam?


Maktab hovlisida mashinalar xavfi yo‘q. Shuning uchun qo‘rqmagan holda o‘ynash mumkin. Ammo ba’zan bolalar ko‘chada ham o‘zlarini haddan ziyod erkin tutadilar va turli joylarda o‘ynaydilar. Bu noto‘g‘ri.



**SHUNDAY YO‘LDA BILING XO‘P,
MUMKIN EMAS O‘YNASH TO‘P!**



Yo‘lga yaqin joyda chana uchmang.



Yo‘lning qatnov qismida o‘ynamang.

Topishmoq va boshqotirma:

- 1) Toyim bor kishnamaydi, yoz chog‘i ishlamaydi.
- 2) Bo‘s sh kataklarga unli harflardan mosini qo‘yib o‘qisangiz, yo‘lning qatnov qismida o‘ynash mumkin bo‘lмаган narsalarning nomi kelib chiqadi.

Savol va topshiriqlar:



1. Yo‘lning qatnov qismida o‘ynash nima uchun xavfli?
2. Suratlarda nimalarni ko‘rayapsiz?
3. Xavfli holatga tushmaslik uchun nima qilish kerakligi haqida gapirib bering.

ch		n	
----	--	---	--

ch		n	g‘	
----	--	---	----	--


k		n	k	
---	--	---	---	--

k		p	t		k
---	--	---	---	--	---




BELGILANGAN YO'NALISHDA YURADIGAN TRANSPORT VOSITALARI BILAN TANISHISH


Shaharda belgilangan joyga tezroq yetib olish maqsadida biz hammamiz jamoat transportidan foydalananamiz. Bu rasmda jamoat transportining qaysi turlari aks ettirilgan? Ular haqida so'zlab bering.



AVTOBUS



TROLLEYBUS



TRAMVAY



POYEZD

Topishmoq

Kichik temir ustida,
shamoldek yelib yurar.
Egalarim kelsin deb,
har doim kutib turar.

t						y
---	--	--	--	--	--	---

BIZ YO'LOVCHILARMIZ

Ko'chada jamoat transporti bekatini qanday topish mumkin?



Siz va boshqa yo'lovchilarga transportga chiqish xavfsiz bo'lishi uchun transport chiqib-tushish qoidalariga rioya qiling. Jamoat transportiga orqa eshikdan chiqish, old eshikdan tushish kerak.




Savollar:



1. Siz yo'lovchilar transportning qaysi eshididan chiqishlari va qaysi eshikdan tushishlari kerakligini bilasizmi?
2. Siz matabga qanday transport vositasida borasiz?


YO'LLARDA HARAKATLANISH QOIDALARINI O'RGANAMIZ SHAHAR, QISHLOQ YO'LLARI BO'YLAB HARAKAT



Bu shahardan tashqaridagi yo'l. Yo'lning transportlar qatnaydigan qismi o'ng va chap tomonlaridan piyodalar harakati uchun joy qoldirilgan.

Bu — yo'l cheti. Piyodalar yo'l chetidan transport harakatining qarshi tomoniga harakatlanishlari kerak.

Yo'lda «Piyodalar yo'l kasi» bo'lsa, piyodalar shu yerdan yurishlari lozim.



Shahardan tashqaridagi yo'llarda ham chorrahalar bor. Chorrahalardan o'tishda juda ehtiyyot bo'lish kerak.



Shahar tashqarisidagi yo'llarning faqat har ikki tomoni yaqqol ko'zga tashlanadigan qismidan kesib o'tish zarur.

Piyoda yo'lning tuyulish, pastlik yoki tepalik bo'lgan qismidan o'tishi mumkin emas, aks holda kelayotgan transportni ko'rmay qolishi mumkin.

Savol va topshiriqlar:




1. Shahardan tashqaridagi yo'lda piyodalar qayerdan yurishlari kerak?

2. Nima uchun yo'lni istalgan joyidan kesib o'tish mumkin emas?

3. O'zingiz yashayotgan hududdagi yo'llar haqida gapirib bering.

4. Katakchalarni to‘ldirsangiz, yo‘lning qaysi qismidan kesib o‘tish mumkin emasligini bilib olasiz.



Harflar joyini almashtirsangiz, avtobus to‘xtaydigan joy nomini topasiz.



YO‘LDA HUSHYOR VA EHTIYOT BO‘LING!

(ERTALIK O‘TKAZISH)

PIYODALAR QO‘SHIG‘I

K. Turdiyeva

Mashinani kim haydar,
Haydovchi-da, haydovchi,
Unda yana kimlar bor,
Yo‘lovchilar, yo‘lovchi.
Kimlar eng ko‘p dunyoda?
Piyodalar, piyoda.

Piyoda manzil sari
Otlanar, otlanar.
Yo‘llarning qoidasi
Yodlanar, yodlanar,

Yo‘lni kesish joyida
Shunday bo‘lar qoida:
Chalg‘imay sira gapga,
Qaramoq kerak chapga.
Angraymay qarang so‘lga,
So‘ng qarash kerak o‘ngga.

Shoshmay tursin shoshqaloq,
Otmay tursin shataloq,
Yonganda yashil chiroq.
Shunda yo‘ldan o‘tadi.


Bir soniya o‘tkazsa,
Bir daqiqa ketkazsa,
Bir zumgina yutqazsa,
Bir umrni yutadi.

Mashinani kim haydar,
Haydovchi-da, haydovchi,
Unda yana kimlar bor,
Yo‘lovchilar, yo‘lovchi.
Kimlar eng ko‘p dunyoda?
Piyodalar, piyoda.

SVETOFOR




Kelardim bog‘chamdan uyga o‘zim,
Bilardim, yo‘lni kesib o‘tishim lozim.



Shunda svetofor men bilan
Gaplasha boshladi birdan.




Yonib qoldi **qizil chiroq**
To‘xta, oldingda yo‘l yo‘q!
Sabr qil-u o‘zingni tutgin,
Ishoramni shoshmay kutgin!



Yonsa-da **Sariq** alanga,
Vaqt bor hali yurishga senga
Yo‘ldan chetroqda tura tur,
Senga yo‘l yo‘q, yopiqdir.



Yashil chiroq yongan zahoti,
Bo‘lar ayni yurish payti.
Yo‘lni kesib o‘ta qol,
Do‘stim, senga «oq yo‘l!»



SHAHAR KO‘CHALARI BO‘YLAB



Shahar ko‘chalarida turli avtomobillar harakatini kuzatamiz. Ular bizni manzillarimizga yetkazishda yo‘rdam beradilar.

TAKSI

Gar shoshilsangiz juda,
Taksi to'xtating shunda.
Unda tezroq ketasiz,
Va manzilga yetasiz.




YO'NALISHLI TAKSI

Yo'nalish bo'ylab yurar,
O'z yo'lida hamma vaqt.
To'xtar siz aytgan joyda,
Undan sizga ko'p foyda.



TRAMVAY

Qo'sh simga ulanib mahkam,
O'z yo'lida boradi.
Sizni manzilga yetkazib,
Xizmatga shay turadi.



AVTOBUS


Bekatdan bekatgacha,
Yo'lovchiga hamisha dastyor.
Reqlar ham, simlar ham
Bo'lmas unga hech darkor.

METRO

Yer ostida yurar poyezd,
Yurar tekis va chaqqon.
Ko'rib ertak deb o'ylamang,
Bo'lmas lol-u ham hayron.




KICHIK PIYODANING QOIDASI




Avtobus yo'lda turib qolsa gar,
Orqasidan aylanib o'ting, birodar.



Ko'chani kesib o'tish-chun,
Chapga qara, so'ng **o'ngga!**



Tramvayni ko'rsang shoshma,
Oldidan o'tgil, chopma.



Yo'l ustida o'ynamang!



MUNDARIJA

Kirish so‘zi	3
Ko‘chada harakatlanish	4
Siz yashayotgan shahar, qishloq yo‘llaridagi harakat	5
Biz mакtabga borayapmiz	6
Yo‘lda hushyor va ehtiyot bo‘ling!	8
Yo‘llardagi sodiq do‘stlarimiz yo‘l belgilari bilan tanishamiz	10
Qayerda o‘ynash mumkin, qayerda mumkin emas	13
Belgilangan yo‘nalishda yuradigan transport vositalari bilan tanishish	17
Biz yo‘lovchilarmiz	18
Yo‘llarda harakatlanish qoidalarini o‘rganamiz	19
Shahar, qishloq yo‘llari bo‘ylab harakat	19
Yo‘lda hushyor va ehtiyot bo‘ling! (ertalik o‘tkazish)	21
Svetofor	22
Shahar ko‘chalari bo‘ylab	25
Kichik piyodaning qoidasi	28

30000 cefil.

M.RIXSIYEV, Q.KARIMOVA

YO'L HARAKATI QOIDALARI

1-SINF O'QUVCHILARI UCHUN O'QUV QO'LLANMA

Muharrir: Adiba Hamro qizi
Texnik muharrir: Muhriddin Hamroyev
Dizayner, sahifalovchi: Eldor Karimov
Musahhih: Suxrobjon Avvalboyev

Nashriyot litsenziyasi: AI № 221, 16.11.12.
Bosishga ruxsat etildi: 04.05.2013-yil.
Shartli bosma tabog'i: 2,0. Nashr tabog'i: 1,2.
Bichimi: 84x108 $\frac{1}{16}$. Respect garniturasi. Ofset bosma.
Adadi: 3000.
16-12 — buyurtma.
Bahosi shartnoma asosida.

Nashriyot manzili:
«Yurist-media markazi» nashriyoti,
Toshkent shahri, Otchopar ko'chasi, 82-uy.
Tel.: 230-04-74, (+99894) 181-27-80.
E-mail: yurist_media@mail.ru

Bosmaxona manzili:

“Credo Print Group” MChJ QK bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent sh., Bog'ishamol ko'chasi, 160 uy.
Buyurtma № 21.